

Turob NIYOZ



**YULDUZNING
ORZUSI**

Bolalar uchun she'rlar

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2016

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')7
N 55

Niyoz, Turob

N 55 Yulduzning orzusi [Matn]: bolalar uchun she'rlar. – Toshkent:
«O'zbekiston», NMIU 2016. – 72 b.

ISBN 978-9943-28-581-1

Qo'lingizdagi ushbu to'plamdan Turob Niyozning vatan, do'stlik, bolalik, tabiat va boshqa mavzulardagi go'zal she'rlari o'rin olgan.

Ushbu kitob Siz aziz bolajonlarning tasavvuringizni kengaytirib, dunyoqarashingizni yanada boyitadi degan umiddamiz.

UO'K 821.512.133-1
KBK 84(5O')7

ISBN 978-9943-28-581-1

© Turob Niyoz, 2016
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2016

YURTIM

Yurtim, tuprog'ingni ko'zimga surdim,
Bundan yuragimda cheksiz zavq tuydim,
Onasini suygan boladay suydim,
Tog'-u toshlaringni, dalalaringni.

Bahorda ochilgan gulga o'xshaysan,
Yoz chog'i sochilgan nurga o'xshaysan,
Kuz payti tovlangan durga o'xshaysan,
Sevaman betakror pallalaringni.

Tinglasam, beqiyos qo'shiq, kuylaring,
Namoyon bo'ladi bast-u bo'ylaring,
Ularda mujassam maqsad, o'ylaring,
Sevaman maftunkor navolaringni.

Seningdek dunyoda yo'qdir go'zal joy,
Bir yonda Registon, bir yon Oqsaroy...
Yangi ko'cha, uylar baxsh etmish chiroy,
Sevaman muhtasham binolaringni.

Baxtim butun bo'ldi – erkin, ozodsan,
Hech kimdan kam emas, ko'rkam,
obodsan,
Orzu, o'ylaringa o'zing qanotsan,
Sevaman suvlaring, havolaringni.

Hurlikda erishgan shonlaring go'zal,
O'tgan har bir lahza, onlaring go'zal,
Oydin kechalaring, tonglaring go'zal,
Sevaman orombaxsh sabolaringni.

Yuksakda hilpirab turar bayrog'ing,
Gullarga burkanib borar har yog'ing,
Baxtli odamlarga to'lar quchog'ing,
Sevaman hur xalqim – bolalaringni.



O‘ZBEKISTON BOLALARIMIZ

Qo‘shiq

Bizlar ozod Vatanning
Baxtiyor bolalari.
O‘zbekiston – chamanning
Yashnagan lolalari.

Ertamizga ilmdan
Qo‘ymoqdamiz poydevor.
Bo‘lsak qancha bilimdon,
Shuncha gullaydi diyor.

Bobolar jasoratin
Dilimizda saqlaymiz.
Jasorat ko‘rsatmoqni
Biz ham juda xohlaymiz.

Garchi bugun yoshdirmiz,
Garchi bugun bolamiz.
Kelajakka boshdirmiz,
El shuhratin yoyamiz.

MUSTAQILLIK NIMA?

Mustaqillik nima deb,
Savol berdim dadamga.
Ular biroz o‘ylanib,
Javob berdi shu damda:

– Mustaqillik – erkin qush,
Qafas nima bilmagan.
Dunyoda tenggi yo‘q kuch,
Zulmga egilmagan.

Mustaqillik – emin-erkin,
Qul bo‘lmasdan yashashdir.
Tug‘ilgan ona yurtni
G‘animlardan asrashdir.

Mustaqillik – paxta, pillang
O‘zingniki degani.
Bor boyliging – kumush... tillang
O‘zingniki degani.

Mustaqillik – o‘z elingda
O‘zing xon, bek degani.
Mustaqillik – o‘z qo‘lingda
Ozodlik, erk degani.

YASHNAYVERGIN, ISTIQLOL!

Qo'shiq

Tegmasin sovuq shamol,
Kun sayin ochgin jamol,
Tobora topgin kamol,
Istiqlolim, istiqlol.

Ozodmiz, baxtiyormiz,
Orzuli, ahdi bormiz,
Tayanch madadkorimiz
Istiqlolim, istiqlol.

Bugun dunyo hayratda,
To'lganmiz kuch-g'ayratga,
Shon quchamiz, albatta,
Istiqlolim, istiqlol.

Har doim omon bo'lib,
Qutlug' yoshlarga to'lib,
Yurtimni gulga ko'mib,
Yashnayvergin, istiqlol!

ONA TILIM

Shundayin shirinki, shundayin dilbar,
Tinglaganim sari tinglagim kelar.

Hech bir tilga uni alishmam aslo,
Men unga shaydoman, unga mahliyo.

Unda bayon etgum quvonch, dardimni,
Unga baxsh etganman butun qalbimni.

Navoiy, Boburlar so‘zlagan til u,
«Xamsa», «Boburnoma» yozilgan til u.

Sonsiz sinovlardan o‘tolgan til u,
Xalqimni yuksakka ko‘targan til u.

Ajdodlar tilidir, avlod tili u,
Vatanni jips qilgan Davlat tili u.



O‘ZBEKISTON MAKTABLARI

Boqib to‘ymas ko‘zlarimiz,
Yorishadi yuzlarimiz,
Dildan toshar so‘zlarimiz,
Mustaqillik oftoblari –
O‘zbekiston maktablari.

E‘tiborda bugun maktab,
Yuksalmoqda ilm-u adab,
Borayapmiz oldga qarab,
Bugun, erta talablari –
O‘zbekiston maktablari.

Bu tarixda bo‘lgan emas,
Xayolga ham kelgan emas,
Butun dunyo qilgay havas,
Yurtim gavhar, sadaflari –
O‘zbekiston maktablari.



CHIN FARZAND BO'LAMAN

Qo'shiq

Ozod diyor, obod diyor vatanim,
Bag'ri bo'ston, bag'ri bahor vatanim.
Poyoni yo'q quchog'ida shoddirman,
Quyoshdayin kulib boqar vatanim.

Shiroq bobom, Temur bobom yodimda,
Ular qoni jo'sh uradi qonimda.
Men ularga bo'lay deyman munosib,
Vatan mehri mangu yashar jonimda.

«Yaxshi o'qi, o'g'lim», – deydi dadamlar, –
Baxtin topar ilm bilan odamlar».
Kitob mening eng qadrdon, chin do'stim,
Ko'z oldimda sir ochadi olamlar.

Hali yoshman, hali kichik bolaman,
Yurtim quchog'ida ungan lolaman.
Ulg'ayaman soat sayin, kun sayin,
Vatanimga sodiq farzand bo'laman.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/oz/asar/4458> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/4458> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/4458>